O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2023 - yil 25 - noyabr 467-2-0-Q/23 Buxoro viloyati hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-noyabrdagi 615-sonli “Yong‘in xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimi joriy etilganligi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining “Davlat yong‘in nazorati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2013-yil 4-oktabrdagi 272-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-noyabrdagi 615-sonli “Yong‘in xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimi joriy etilganligi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining “Davlat yong‘in nazorati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2013-yil 4-oktabrdagi 272-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-noyabrdagi 615-sonli “Yong‘in xavfsizligini ta’minlashning sifat jihatidan yangi tizimi joriy etilganligi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining “Davlat yong‘in nazorati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2013-yil 4-oktabrdagi 272-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 4-oktabrdagi 272-sonli “Davlat yong‘in nazorati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga ilovaga muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin:

Favqulotda vaziyatlar vazirligining davlat yong‘in nazorati organlariga tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan obyektlarda batafsil, nazorat va tezkor tekshiruvlar o‘tkazish;

Davlat yong‘in nazorati organlarining asosiy vazifalariga hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlariga asosan bino va inshootlarning yong‘in xavfsizligi talablariga muvofiqligini baholash (yong‘in auditi) xizmatini ko‘rsatish va bu yo‘nalishda mustaqil baholovchi yong‘in auditorlik tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

jamiyatni ommaviy axborot vositalari orqali yong‘in xavfsizligi muammolari va yong‘in xavfsizligini ta’minlash usullari haqida xabardor qilish.

3. Viloyat favqulotda vaziyatlar boshqarmasi (A.Abduxaliqov) ilgari qabul qilingan huquqiy hujjatlarini Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga muvofiqlashtirish hamda qaror ijrosini belgilangan tartibda ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**